

“90/180/360 kunlik paketlar uchun KB” Aksiyasi Qoidalari

“90/180/360 kunlik paketlar uchun KB” Aksiyasi (keyinchalik – Aksiya deb yuritiladi) “Humans” mas’uliyati cheklangan Jamiyati manzili: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘chasi. 2-B-uy, STIR 306624856 (Provayder) tomonidan o‘tkazilayotgan bo‘lib, Provayder tomonidan taqdim etilayotgan aloqa xizmatlariga qiziqishni oshirishga qaratilgan.

1. Aksiya haqida ma’lumot

1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so‘zlar atamalardir. Atamalarning ta’rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida, Provayder tomonidan HUMANS sodiqlik dasturi Qoidalarida tasdiqlangan va www.humans.uz saytida, shuningdek, tariflarning tavsiflarida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish Shartlarini qabul qilish orqali Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Shartnoma tuzgan va 2022-yil 7-iyun sanasiga ko‘ra, 90 yoki 180 yoki 360 kunlik hisob davri bilan faol Tarif paketiga ulangan jismoniy shaxs bo‘lgan mijozlardir.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

2. Aksiya bayoni

2.1. 2022-yilning 7-iyunida Aksiya Ishtirokchisi ulagan paketning to‘liq narxi va 07.06.2022 da tasdiqlangan amal qilish muddati bo‘yicha xuddi shu paketning to‘liq narxi orasidagi farq miqdorida Mijozning Keshbek hisobiga bir martalik bonus taqdim etiladi.

2.2. Bonus Keshbek hisobga 08.06.2022 da tushirib beriladi.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Mazkur Qoidalar Provayderning Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda mazkur Qoidalarni o'zgartirish yoki tegishli ma'lumotni oldindan Saytda joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabardor qilish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasidir. Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.